

O'ZBEKISTONDA AYOL-QIZLARNI SPORTGA JALB QILISHDAGI DOLZARB MUAMMOLAR

Mamadjanov Ne'matjon¹, Tolametov Abdujalil²✉, Yusupxanova Feruza²

¹Farg'ona Davlat Universiteti. Farg'ona shahri, O'zbekiston Respublikasi.

²Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutini. Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi.

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan ayol-qizlarni sportga jalb qilishdagi dolzarb muammolari yoritilgan. Mazkur muammolarni aniqlash maqsadida o'tkazilgan anketa-so'rov natijalari tahlil qilingan hamda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, ilg'or tajribani o'rganish va umumlashtirish asosida muammoning yechimlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sport, oila, oilaviy tarbiya, jismoniy tarbiya, ayol-qizlar sporti, millat genofondi.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3808-son qarori va 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 67-maqsadda "Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish", "Respublika yoshlari o'rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish" va "Yurtimizning chekka hududlari va qishloqlarida sog'lomlashtirish ishlarini yanada rivojlantirish" maqsadida ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish jamiyatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biridir [1,2].

Bugungi kunda qishloq joylarida jismoniy tarbiya va sport tizimi negizida qarab chiqadigan bo'lsak, uni doimiy ravishda isloh qilish, muntazam amalga oshirishigina samara berishi mumkin. Chunonchi, Prezident Sh.M.Mirziyoev ta'biri bilan aytganda "Hayotning o'zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'yimoqda". [3] Bu esa qishloq joylarida ayollar sportini tashkil etish, uni yanada takomillashtirish va mukamallashtirib borish, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muammosini zaruriyat qilib qo'yimoqda.

Ishning maqsadi – respublikamizda istiqomat qilayotgan ayol-qizlarni sportga

jalb qilishdagi dolzarb muammolarni aniqlash.

Tadqiqot usullari – anketa-so'rov o'tkazish, ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, ilg'or tajribani o'rganish va umumlashtirish.

O'zbekiston Respublikasida millat taqdiri, mamlakat kelajagi haqida o'ylash, uning huquqiy asoslarini ishlab chiqish, zarur shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Oila – jamiyatning kichik, lekin g'oyat muhim bo'g'ini. Demak, butun mamlakatning kelajagi shu yurt farzandlariga bog'liq. Shuning uchun ham sog'lom avlod masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Sog'lom oila, sog'lom avlod – bu mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun asosdir. Davlatimiz oila institutlarini mustahkamlash, farzandlarning ta'limi va tarbiyasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu siyosat oiladagi munosabatlarni yaxshilash, farzandlarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimiz kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega.

Farzandlarimizning sog'lom tug'ilishi, o'sishi, o'qishi va voyaga yetishi uchun qilingan ishlarning salmog'i juda ulkan. "Bolalarni asraylik" xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan reytingda o'sib kelayotgan yosh avlod salomatligi haqida eng ko'p g'amxo'rlik ko'rsatadigan davlatlar orasida O'zbekiston 8-o'rinni egallagani bejiz emas.

Bu natija mamlakatimizda bolalarning sog'lig'ini saqlash, ularning ta'limi va rivojlanishini ta'minlashga oid amalga oshirilayotgan kompleks choralarning samarasi sifatida ko'rilishi mumkin. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan turli loyihalar va dasturlar, shuningdek, mahalliy jamoalarning tashabbuslari yosh avlodga g'amxo'rlik qilishga mo'ljallangan.

Respublikamizda oila va sog'lom bola, sog'lom avlod masalasi davlat siyosati darajasida yondoshilmoqda. Boshqacha aytganda, sog'lom bola tug'ilishi uchun avvalo ona sog'lom bo'lishi va oilada sog'lom muhit yaratilmog'i lozimligiga katta e'tibor berilmoqda.

Bu yo'nalishda oilaviy sog'liqni saqlash, farzandlarning rivojlanishini ta'minlash va ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor berilmoqda. Shuningdek, sog'lom hayot tarzini targ'ib qilish, oiladagi munosabatlarni mustahkamlash va bolalar uchun qulay, hamda barqaror muhit yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Materiallar va metodlar


Onalarni jismonan sog'lom bo'lishida sport muhim ahamiyatga ega. Shu bois respublikamizda ayol-qizlar sportini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda qizlarni sportga jalb etish ommaviy tus oldi. Ushbu ishlarni amalga oshirish uchun nainki poytaxtimizda yoxud

viloyatlar markazlarida, balki uzoq-uzoq qishloqlarda ham zamonaviy sport inshootlari qurildi va qurilmoqda. Ular sport jihozlari bilan ta'minlangan. Eng asosiysi, ushbu sport maskanlaridan foydalanish darajasi yildan yilga oshib borayotir.

Ana shunday e'tibor va g'amxo'rlik samarasida ayol-qizlarimiz sportning turli yo'nalishlari bo'yicha Osiyo va jahon musobaqalarida yuqori natijalarni qo'lga kiritmoqda.

Ishimizning maqsadidan kelib chiqqan holda, biz, respublikamizda istiqomat qilayotgan ayol-qizlarni sportga jalb qilishdagi muammolarni o'rganish yuzasidan ayol-qizlar orasida onlayn va offlayn tarzda anketa-so'rovnoma o'tkazdik. Ushbu tadqiqotlarda respublikamizda istiqomat qilayotgan 7 yoshdan 17 yoshgacha, 18 yoshdan 23 yoshgacha, 23 yoshdan 35 yoshgacha, 35 yoshdan 55 yoshgacha, 56 yosh va undan yuqori bo'lganlar 2159 nafar umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari, Oliy ta'lim muassalari talaba va o'qituvchilari, shuningdek Respublikamizda istiqomat qilayotgan ayol-qizlar ishtirok etishdi. Tadqiqot ishtirokchilari tarkibi bo'yicha 7 yoshdan 17 yoshgacha - 428 nafar (19,82%), 18 yoshdan 23 yoshgacha- 625 nafar (28,94%), 24 yoshdan 35 yoshgacha- 529 nafar (24,5%), 36 yoshdan 55 yoshgacha- 402 nafar (18,61%), 56 yosh va undan yuqori -175 nafar (8,13%)ni tashkil qildi (1-rasm).



1-rasm. Ayol-qizlarni sportga jalb qilishdagi muammolarni o'rganish yuzasidan o'tkazilgan onlayn va offlayn anketa-so'rovnoma ishtirokchilari tarkibi.


Natijalar va muhokama

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, ommalashtirish hamda uni umummilliy harakatga aylantirish fuqarolar salomatligini mustahkamlash, yosh avlodning barkamol voyaga yetishida muhim omil hisoblanadi. Shu bois yurtimizda jismoniy tarbiya hamda sportga davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ayol-qizlar sportini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishida O'zbekiston farzandlarining sog'lom dunyoga kelishi, ulg'ayishi, tarbiya topishi va pirovard natijada millat genofondini yaxshilash maqsadi mujassam. Buni anketa-so'rovda ishtirok etganlar yashab turgan joy, hududda ayol-qizlarni sportga jalb qilinganligi necha foiz deb bilasiz? degan savolga 10-20% gacha 18,8%, 30-50% gacha 32,2%, 50-70% gacha 21,9% va 70-100% gacha 27,1% ni bildirganlar.

Respublikamizning barcha hududlarida zamonaviy sport majmualari, jumladan, gimnastika zallari, tennis kortlari, suzish

havzalari, fitnes zallari bunyod etilgani, ularda ayol-qiz murabbiylar faoliyat yuritayotgani, qizlar o'rtasida sportning ommalashishida muhim omil bo'lmoqda. Bugungi kunda Respublikamiz shaharlarida ayol-qizlarning 69,2%, qishloq joylarda esa 67,3% sport bilan shug'ullanmoqda. Bu ko'rsatkich ham ayol-qizlar sportining mamlakatimizning barcha hududlarida shiddat bilan rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Buni anketa-so'rovidagi ayol-qizlar sportiga qanday sport turlari mansubligi haqida tasavvur ega bo'lganlari 92,2% ni va 7,8% emasligidan natijasidan ham ko'rish mumkin.

Bugungi kunda respublikamizning shahar, qishloq joylarida, olis va chekka hududlarda turli sog'lomlashtirish tadbirlari, musobaqalar, turnirlar, ma'rifiy tadbirlar o'tkazish orqali jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni ayol-qizlarning kundalik hayot tarziga aylantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Buni "Siz sport bilan muntazam shug'ullanasizmi?" degan savolga 78,2% ijobiy, 12,7% salbiy javob berishgan va 9,1% javob bera olmagan natijasidan ham ko'rish mumkin (2-rasm.).




2-rasm. Anketa-so'rovnomasining "Siz sport bilan muntazam shug'ullanasizmi?" savoliga berilgan javoblar tahlili.

Oilada shakllangan sport muhiti bolani sportga bo'lgan muhabbatini uyg'otadi. Shuningdek, maktablarda turli xildagi sport to'garaklari tashkil etish o'quvchi qizlarning sportga bo'lgan qiziqishini orttirib, sportga nisbatan mehr uyg'otadi. Har bir mahallalarda tashkil etilgan sport maydonlari bilan bir qatorda ayol-qiz murabbiylar tomonidan sport

to'garaklarining tashkil etilishi qizlar sonining ortishiga erishiladi.


Anketa-so'rovda ishtirok etganlar "Oila a'zolaringiz sizni sport bilan shug'ullanishingizga bo'lgan fikrlari ijobiyi?" -degan savolga 92,4% ijobiy, 3,4% salbiy javob berishgan va 4,2% javob bera olmayman deb bildirganlar (3-rasm).



3-rasm. Anketa-so'rovnomasining "Oila a'zolaringiz sizni sport bilan shug'ullanishingizga bo'lgan fikrlari ijobiyi?" savoliga berilgan javoblar tahlili.

Respondentlarga "Siz yashaydigan hududda ayol-qizlar sportini targ'ib qilish ishlaridan mamnunmisiz?" -degan savolga

84% ijobiy, 11,7% salbiy javob berishgan va 4,3% javob bera olmayman deb bildirganlar (4-rasm).



4-rasm. Anketa-so'rovnomasining "Siz yashaydigan hududda ayol-qizlar sportini targ'ib qilish ishlaridan mamnunmisiz?" savoliga berilgan javoblar tahlili.

Shuningdek, Sog'lom onadan – sog'lom farzand tamoiliga qo'shilasizmi? degan savolga 98 % ijobiy deb bildirganlar.

Respondentlarining 95,4% Shaxs kamolotida sport muhim o'rin tutishini takidlashgan bo'lsa, 2,3% salbiy javob berishgan va 2,1% javob bera olmasliklarini bildirganlar.

Qayd etish lozimki, ta'lim, sihat-salomatlik, jismoniy tarbiya va sportga oid hujjatlarda o'z aksini topib kelayotgan Davlat dasturlarining yanada chuqurroq va keng ma'noda amalga oshirishida, yoshlarimizni ma'naviy va jismoniy sog'lom qilib tarbiyalashda ayol-qizlar sportining o'rni beqiyosdir.

Ayollar sportini rivojlantirish va ommaviylashtirish, ularni sog'lom-

lashtiruvchi sport turlariga kengroq jalb etish, oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Respublikamizning qishloq joylarida, olis va chekka hududlarida istiqomat qilayotgan ayol-qizlar orasidan ommaviy ravishda jismoniy tarbiya va sportga jalb etish maqsadida sport musobaqalarini tashkil qilinishi, ayollarimizni sportga bo'lgan qiziqishlarini oshirmoqda.


Jumladan, mahallalarda, ta'lim muassasalarida va boshqa soha vakillari orasida targ'ibot-tashviqot ishlari jadal olib borilmoqda. Bu faoliyatlar natijasida sport tadbirlarida ishtirok etayotgan ayol-qizlar soni yildan-yilga oshib bormoqda. Ayollarni sportga jalb qilish, ularning faolligini oshirish va sog'lom hayot tarzini

rivojlantirish maqsadida olib borilayotgan ushbu tadbirlar aholining sportga bo'lgan qiziqishini yanada oshirmoqda. Bunday tashabbuslar ayollarning jismoniy va ma'naviy salohiyatlarini rivojlantirishga katta yordam bermoqda.

Mamlakatimizda ayol-qizlarga har tomonlama yordam berish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy hayotdagi o'rnini mustahkamlash va ulkan imkoniyatlarini ochishga yo'naltirilgan davlat siyosati amalga oshirilmoqda.

Bu siyosatning asosiy maqsadi ayollarning jismoniy, ma'naviy va intellektual salohiyatlarini rivojlantirish, qiz bolalarni zamonaviy kasblarga o'rgatish, sportga jalb qilish va sog'lom oilalarni shakllantirishdir.

Buni anketa-so'rovda ishtirok etganlar "Qizlarni oilaga tayyorlashda sportni o'rni muhim deb o'ylaysizmi?"-degan savolga 94,4% ijobiy, 1,3% salbiy javob berishgan va 4,3% javob bera olmayman deb bildirganlar (5-rasm).



5-rasm. Anketa-so'rovnomasining "Qizlarni oilaga tayyorlashda sportni o'rni muhim deb o'ylaysizmi?" savoliga berilgan javoblar tahlili.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qizlarni oilaga tayyorlashda qizlarda sog'lom turmush tarzi odatlarini shakllantirish bilan bir qatorda, ularda milliy va umumbashariy qadriyatlarni shakllantirish, halollik, o'zaro hurmat - ehtirom, bag'rikenglik, maqsad sari intiluvchanlik kabi yuksak fazilatlarni shakllantiriladi. Bunday qadriyatlarni shakllantirish jamiyat bo'g'inlarini yanada mustahkamlanishiga erishiladi.

O'zbekistonda ayol-qizlar sportining rivojlanishiga keng imkoniyatlar berilayotganini hisobga olsak, bu yo'nalishning ma'naviy jihatini ham shakllantirish zarur. Qizlar sportini rivojlantirish uchun ularning jamiyatdagi o'rni, oiladagi vazifasi hamda qadriyatlarimizdagi ularga bo'lgan munosabatni ham hisobga olish lozim. Ma'lumki, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi ayol-qizlarning soni yildan yilga ortib bormoqda. Bu holat

respublikamizda kun sayin sportning rivojlanayotgani va yashash tarzimizda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlardan dalolatdir.

Shu bois 2017-2021 yillarda mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi"ning "Ijtimoiy sohani rivojlantirish"ga yo'naltirilgan to'rtinchi ustuvor yo'nalishida ta'lim ilm-fan, tarbiya, adabiyot, san'at va sport sohalarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas.

Respondentlarining 100% respublikamizda ayol-qizlar sport bo'yicha olib borilayotgan islohatlar haqida yetarli ma'lumotga ega ekanligini bildirganlar.

Yurtboshimiz har bir kishi "O'zining salomatligi haqida shaxsan g'amxo'rlik qilib borish madaniyatini yoshlikdan, oila, maktab, mahalla, sog'liqni saqlash tizimi, jismoniy tarbiya va sportning ko'magida singdirish kerak", deb bejiz aytmagan. Zero,

“Sogʻlom, bilimli va fidoyi farzandlari boʻlgan xalq albatta oʻzining kelajagini barpo etadi”, degan koʻrsatmasi biz uchun dasturil amal sanaladi.

Xulosa

Erishilgan yutuqlar bilan birga oldimizda oʻz yechimini kutib turgan bir qator muammolar va vazifalar borligini ham eʼtirof etishimiz lozim:

-mahallalarda ayol-qizlar sportini rivojlantirishda, taʼlim muassasalari, oila, hokimiyat organlari faoliyatini aniq harakat dasturi asosida muvofiqlashtirish;

-mahallalarda sport instruktoriga shtatini joriy etish va shu orqali oʻtkaziladigan sport musobaqalarini rejalashtirish, muvofiqlashtirish, tashkil etish. Mahalla

hududidagi sportga qiziqishi bor, iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni istiqbolli yoʻnaltirish;

-sport sohasidagi ayol-qiz oʻqituvchilar va murabbiylar malakasini oshirish jarayoniga jahondagi yetakchi olimlar va mutaxassislarni jalb etish.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar tufayli ayol-qizlar sporti kundan-kunga yuksalib bormoqda. Bu eng avvalo, kelajak avlodni yaratuvchi opa-singillarimiz sogʻligini mustahkamlashga, ular oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilmoqda, qolaversa, sport sohasida ham qizlarimiz jahon sport maydonlarida yuqori marralarni zabt etib, oʻzbek ayollarining, qizlarining nimalarga qodir ekanliklarini namoyish etib kelmoqda.

Current issues of attracting women and girls to sports in Uzbekistan

Mamadjanov Nematjon¹, Tolametov Abdjalil² , Yusupxanova Feruza²

¹Fergana State University. Fergana, Republic of Uzbekistan.

²Institute for Retraining and Advanced Training of Specialists in Physical Culture and Sports. Tashkent, Republic of Uzbekistan.

Abstract. The article highlights the current problems of attracting women and girls living in the Republic of Uzbekistan to sports. The results of a survey conducted to identify these problems are analyzed. Based on the analysis of scientific and methodological literature, study and generalization of best practices, proposals and recommendations for solving this problem are developed.

Keywords: sports, family, family education, physical education, women's sports, gene pool of the nation.

Актуальные проблемы привлечения женщин и девушек к спорту в Узбекистане

Мамаджанов Неъматжон¹, Толаметов Абдужалил² , Юсупханова Феруза²

¹Ферганский государственный университет. г. Фергана, Республика Узбекистан.

²Институт переподготовки и повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту. г. Ташкент, Республика Узбекистан.

Аннотация. В статье освещены актуальные проблемы привлечения к спорту женщин и девушек, проживающих в Республике Узбекистан. Проанализированы результаты анкетирования, проведенного с целью выявления этих проблем. На основе анализа научно-методической литературы, изучения и обобщения передового опыта разработаны предложения и рекомендации по решению данной проблемы.

Ключевые слова: спорт, семья, семейное воспитание, физическое воспитание, женский спорт, генофонд нации.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3808-son qarori.

3. Sh.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz/1-jild. «O'zbekiston» NMIU, 2017-239 b.

4. Tolametov A.A., , & Yusupkhanova F.A., . (2021). THE DIFFICULT PROBLEM OF GROWING ATHLETES AMONG WOMEN LIVING IN RURAL AREAS AND BORDER TERRITORIES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(09), 136–141. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-02-09-30>

5. Tolametov Abduljalil Abdujaparovich, . (2024). THE IMPORTANCE OF USING ELECTRONIC TEXTBOOKS IN IMPROVING THE SKILLS OF PHYSICAL EDUCATION TEACHERS. International Journal Of Management And Economics Fundamental, 4(11), 93–102. <https://doi.org/10.37547/ijmef/Volume04Issue11-09>